O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL	1173
Qo'ziyoyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI"	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010–2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАН	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	



SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Email: shaxzodsharofitdinov2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyot sharoitida yashil texnologiyalardan foydalanish holati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, taqqoslash, dinamik tahlil hamda grafik usullardan foydalanildi. Mazkur metodlar asosida hududda yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va yashil texnologiyalarni joriy etish istiqbollari kompleks ravishda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, elektron chiqindilar (E-waste), barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, iqtisodiy samaradorlik, aylanma iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar, ekologik barqarorlik.

Abstract. This article highlights the current state of the use of green technologies within the framework of the development of a green economy in the Surkhandarya region. The study employs statistical, comparative, and dynamic analysis methods, as well as graphical techniques. Based on these approaches, a comprehensive assessment of the level of green economy development and the prospects for the implementation of green technologies in the region is provided.

Key words: green economy, green technologies, solar energy, wind energy, electronic waste (E-waste), sustainable development, renewable energy, economic efficiency, circular economy, ecological innovations, ecological sustainability.

Аннотация. В данной статье освещается состояние использования зелёных технологий в условиях формирования зелёной экономики в Сурхандарьинской области. В процессе исследования применялись методы статистического, сравнительного и динамического анализа, а также графические методы. На основе данных подходов проведена комплексная оценка уровня развития зелёной экономики в регионе и перспектив внедрения зелёных технологий.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёные технологии, солнечная энергия, энергия ветра, электронные отходы (E-waste), устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экономическая эффективность, циркулярная экономика, экологические инновации, экологическая устойчивость.

KIRISH

Global miqyosda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda ekologik muammolarning kuchayishi jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi muhim strategik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyotga o'tish hamda zamonaviy yashil texnologiyalarni keng joriy etish masalalari hududiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonlarni jadallashtirish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, yashil iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish to'g'risidagi Prezident qarori hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi [1] doirasidagi davlat dasturlari ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mustahkam huquqiy asosini tashkil etadi.

Sanoatning izchil rivojlanishi, transport vositalari sonining ortib borishi hamda tabiiy resurslardan foydalanish ko'lamining kengayishi hududlarda ekologik yuklamaning oshishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy



rivojlanishni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirish zarurati yanada ortib bormoqda. Shu bois, yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonlarda mamlakatimizning har bir hududi iqtisodiy rivojlanishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy rivojlanish siyosatiga izchil joriy etish hamda yashil texnologiyalarni hududlar ixtisoslashuvi asosida keng qo'llash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot tushunchasi so'nggi yillarda global miqyosda ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirish vositasi sifatida keng tadqiq etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (United Nations Environment Programme — UNEP) yashil iqtisodiyotni atrof-muhit muhofazasi, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni o'zaro uyg'unlashtiruvchi iqtisodiy model sifatida ta'riflaydi. Shu bilan birga, Xalqaro energetika agentligi (International Energy Agency — IEA) qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi va energiya xavfsizligini yashil iqtisodiyot konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholaydi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyot masalalari atroflicha o'rganilgan. Xususan, Vaxabov A.V. va Xajibakiyev Sh.X. yashil iqtisodiyotni ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan iqtisodiy model sifatida talqin etadilar (Vaxabov va Xajibakiyev, 2020, 18-bet) [2]. Mazkur yondashuvda iqtisodiy taraqqiyot va ekologik muvozanatning uzviy bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Xorijiy olimlar ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratganlar. Jumladan, UNEP yashil iqtisodiyotni inson farovonligini oshiruvchi va ekologik xavflarni kamaytiruvchi tizim sifatida izohlaydi. Edward Barbier esa yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, kam uglerodli rivojlanishga o'tish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi (Barbier, 2011) [3]. Yevropa tajribasida Germaniyaning "Energiewende" siyosati [4] yashil texnologiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy va ekologik muvozanatga erishishning samarali modeli sifatida e'tirof etiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalarni joriy etish nafaqat ekologik natijadorlikni oshiradi, balki iqtisodiy o'sish va hududiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Masalan, Germaniya qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishda muhim natijalarga erishib, karbon chiqindilarini kamaytirishga muvaffaq bo'lgan. Daniya shamol energetikasida yetakchi davlatlardan biri sifatida e'tirof etilib, ushbu sohadagi sarmoyaviy rag'batlantirish mexanizmlari orqali hududiy bandlikni oshirishga erishgan. Janubiy Koreya esa yashil texnologiyalarni ishlab chiqarishda innovatsion kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirib bormoqda.

O'zbekiston sharoitida ham yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalar yo'nalishida qator ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan hududiy resurslar, energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarish tizimlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli tashkilotlar hisobotlarida viloyatlarda yashil texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq mavjud muammolar hamda istiqbolli yo'nalishlar yoritilgan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mahalliy olimlar, xususan Vaxabov A.V. va Xajibakiyev Sh.X. [2], shuningdek xorijiy olim Edward Barbier [3] tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar o'rtasida muayyan mushtaraklik mavjud. Ularning barchasi yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi sifatida ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni o'zaro uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa barqaror rivojlanishni ta'minlashda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi iqtisodiy taraqqiyotdan ajralmas ekanini ko'rsatadi. Darhaqiqat, ekologik omillarni e'tibordan chetda qoldirish uzoq muddatda iqtisodiy natijalarning barqarorligini susaytirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy tajribalarni nafaqat Surxondaryo viloyati, balki respublikaning boshqa hududlari sharoitiga ham moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tajribalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal etish vositasi, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish va resurslarni samarali boshqarishning muhim omili ham hisoblanadi. Shu bois, mazkur maqolada Surxondaryo viloyatidagi mavjud holat va istiqbollar batafsil tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalarni rivojlantirish jarayonlarini kompleks tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Xususan, statistik tahlil usuli orqali hududiy va respublika miqyosidagi ko'rsatkichlar o'rganildi hamda ularning dinamikasi baholandi. Taqqoslash usuli yordamida Surxondaryo viloyatining ko'rsatkichlari boshqa hududlar va xalqaro tajribalar bilan solishtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot — atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy model hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, ushbu model resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Yashil texnologiyalar esa energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga xizmat qiluvchi innovatsion yechimlar majmuini ifodalaydi.

Yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalarning nazariy asoslarini quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali izohlash mumkin. Yashil iqtisodiyot an'anaviy, resurslardan intensiv foydalanishga asoslangan iqtisodiy modeldan farqli ravishda quyidagi nazariy qarashlarga tayanadi [2]:

1. Barqaror rivojlanish nazariyasi — iqtisodiy o'sish kelajak avlodlar ehtiyojlariga zarar yetkazmagan holda, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi.

2. Ekologik iqtisodiyot — tabiiy resurslar (suv, o'rmon, toza havo) va ekotizim xizmatlari cheklangan va qadrlil kapital sifatida qaraladi hamda iqtisodiyot tabiat bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

3. Inklyuziv o'sish — iqtisodiy o'sish natijalari jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida muvozanatli taqsimlanishi hamda "yashil" ish o'rinlari yaratilishini ta'minlaydi.

4. Ekologik samaradorlik — kamroq resurs sarflab, yuqori natijaga erishish va chiqindilarni minimallashtirishni anglatadi.

5. Tashqi ta'sirlarni ichkilashtirish — atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni iqtisodiy subyektlarning o'z zimmasiga olish mexanizmini nazarda tutadi (masalan, karbon chiqindilariga nisbatan iqtisodiy rag'batlantirish choralarini qo'llash).

Yashil texnologiyalar esa atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiruvchi, resurslarni tejovchi va ekologik toza ishlab chiqarishni ta'minlovchi usullar va texnologiyalar majmuini tashkil etadi. Ularning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Aylanma iqtisodiyot — "xomashyo – mahsulot – chiqindi" chiziqli modelidan "xomashyo – mahsulot – qayta ishlash – xomashyo" aylanma modeliga o'tishni nazarda tutadi. Bunda chiqindilar qayta ishlanib, ikkilamchi resurs sifatida qayta foydalaniladi.

2. Qayta tiklanuvchi energiya nazariyasi — an'anaviy yoqilg'i manbalaridan bosqichma-bosqich foydalanishni qisqartirib, quyosh, shamol va gidroenergiya kabi barqaror manbalardan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan.

3. Ekologik innovatsiyalar — ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni o'z ichiga oladi.

4. Hayotiy sikl tahlili — mahsulotni yaratishdan tortib, uni utilizatsiya qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda atrof-muhitga ta'sirini kompleks baholashni ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: tabiiy kapitalni asrash, energiya samaradorligini oshirish, kam uglerodli rivojlanishni ta'minlash hamda resurslardan oqilona foydalanish.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalarni joriy etish borasida ijobiy amaliy natijalarga erishilmoqda. Ushbu tajribalar hududiy rivojlanishda samarali yondashuv sifatida xizmat qilmoqda. Jumladan, Navoiy viloyati qayta tiklanuvchi energiya sohasida yetakchi hududlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [5]. Hududda yirik quyosh elektr stansiyalarining ishga tushirilishi elektr energiyasi ishlab chiqarishda diversifikatsiyani ta'minlab, barqaror energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shuningdek, Buxoro viloyatida ham quyosh energetikasi loyihalarini izchil rivojlanib bormoqda [6]. Xalqaro investitsiyalar asosida zamonaviy quyosh panellari o'rnatilishi energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasida shamol energetikasi yo'nalishida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda [6]. Ushbu loyihalar orqali shamol resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda va energiya ishlab chiqarish salohiyati oshmoqda.

Toshkent viloyatida esa chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda [6]. Bu jarayonlar ekologik holatni yaxshilash bilan birga resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.

Mazkur hududiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot rivoji asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash hamda energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlarida izchil rivojlanmoqda. Ushbu tajribalarni Surxondaryo viloyati sharoitiga moslashtirish hududda yashil texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Surxondaryo viloyati tabiiy-iqlim sharoitiga ko'ra quyosh energetikasini rivojlantirish uchun eng istiqbolli hududlardan biri hisoblanadi. Quyoshli kunlar sonining yuqoriligi va quyosh radiatsiyasining intensivligi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan, Navoiy viloyatida amalga oshirilgan quyosh elektr stansiyalari tajribasini hududga moslashtirish energiya ta'minotini barqarorlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.



Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilayotgan shamol energetikasi tajribalarini qisman o'rganish mumkin. Biroq Surxondaryo viloyatida shamol resurslarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ushbu yo'nalishni bosqichma-bosqich va tajriba loyihalari asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari, hududda qishloq xo'jaligining rivojlanganligini hisobga olib, quyosh energiyasiga asoslangan sug'orish tizimlari, issiqxonalar hamda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat energiya samaradorligini oshiradi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosati, investitsiya muhiti hamda innovatsion yondashuvlar bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, Germaniya yashil energetika sohasida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda energiya tizimini transformatsiya qilishga qaratilgan "Energiewende" siyosati [4] asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalari keng joriy etilgan bo'lib, quyosh va shamol energiyasining ulushi sezilarli darajada oshgan. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan, subsidiyalar va tarif imtiyozlari natijasida xususiy sektor faol jalb etilgan. Mazkur tajriba hududiy darajada qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini rivojlantirish uchun samarali model sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, Daniya shamol energetikasi sohasida yuqori natijalarga erishgan davlat sifatida e'tirof etiladi [9]. Mamlakat elektr energiyasining muhim qismini shamol turbinalari orqali ishlab chiqaradi. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini ham kengaytirgan. Ushbu model shamol resurslari mavjud hududlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, Xitoy qayta tiklanuvchi energiya va yashil texnologiyalarni keng joriy etish orqali sanoatni modernizatsiya qilishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda [9]. Xususan, mamlakat quyosh panellari ishlab chiqarish bo'yicha global yetakchi hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari va infratuzilmani rivojlantirish ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim tajriba Janubiy Koreya misolida kuzatiladi. Ushbu mamlakat "yashil o'sish" strategiyasi doirasida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirib, energiya samaradorligini oshirishga erishgan [9]. Ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar va ilg'or texnologik yondashuvlar bu jarayonning muhim asosini tashkil etadi.

Surxondaryo viloyati uchun xorijiy tajribalarni moslashtirish mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Germaniya tajribasi asosida quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish mumkin. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali bunday loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish mumkin. Bu, ayniqsa, Surxondaryo viloyatining quyosh resurslari yuqori bo'lgan hududlari uchun dolzarb hisoblanadi.

Ikkinchidan, Daniya tajribasidan kelib chiqib, kichik va o'rta quvvatli shamol energetikasi loyihalarini bosqichma-bosqich joriy etish mumkin. Surxondaryo viloyatida shamol resurslari cheklangan bo'lsa-da, tog'li va ochiq hududlarda kichik shamol turbinalarini tajriba loyihalari sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, Janubiy Koreya tajribasiga asoslanib, innovatsion yashil texnologiyalar va energiya tejovchi tizimlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, viloyatda qishloq xo'jaligi va issiqxona xo'jaliklari rivojlanganligini inobatga olib, ushbu sohalarga energiya tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Surxondaryo viloyati o'zining qulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan "yashil energiya" manbalarini rivojlantirish uchun istiqbolli hududlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, quyoshli kunlar sonining yuqoriligi va quyosh radiatsiyasining intensivligi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan, hududda yashil iqtisodiyot tamoyillarini izchil joriy etish va zamonaviy yashil texnologiyalarni keng qo'llash barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda (1-jadval).

1-jadval. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)¹

Yil	Respublika miqyosida (%)	Surxondaryo miqyosida (%)
2021	10	3
2022	12	4
2023	16	7
2024	18	15
2025	23	23

1 ⁵ Muallif ishlanmasi stat.uz ma'lumotlari asosida




Ushbu jadvaldan ma'lumki qayta tiklanuvchi energiya respublika miqyosida ham Surxondaryo miqyosida ham yildan yilgan oshib bormoqda.

Quyida sohadagi joriy natijalar va yaqin kelajakdagi strategik yo'nalishlar umumlashtirilgan.

1. Bugungi kunda viloyatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) bo'yicha yirik fundamental ishlar boshlangan:

- Joriy holat (Sherobod FES): Sherobod tumanida 457 MVt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi yakunlanish bosqichida. Bu yiliga 1 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi.
- Kelajakda faqat quyosh panellari bilan cheklanib qolmay, energiyani saqlash tizimlari (BESS) joriy etiladi. Bu quyosh botganidan keyin ham tarmoqqa barqaror energiya uzatishni ta'minlaydi.
- To'palang GES quvvatini 175 MVtga yetkazish va tog'li hududlardagi daryolarda kichik mikro-GESlar tarmog'ini yaratish orqali suv energiyasidan foydalanish koeffitsienti oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Respublika va Surxondaryo miqyosida elektr energiyasi ishlab chiqarish²

Ushbu diagrammadan ma'lumki Oxirgi 5 yil ichida O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish sezilarli oshgan, lekin Surxondaryo viloyatining ulushi nisbatan juda kam.

2. Suv tejash va agrovoltaika, viloyat iqtisodiyotining 40% dan ortig'ini tashkil etuvchi agrar sohada tub burilishlar kutilmoqda:


- Hozirgi natijalar: Paxta va g'alla maydonlarida tomchilatib sug'orish tizimlari joriy etilib, suv sarfi 30-40% ga qisqartirildi.
- Kelajak texnologiyasi (Agrovoltaika) - Ekin maydonlari ustiga baland quyosh panellarini o'rnatish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Bu bir vaqtning o'zida ham hosil olish, ham energiya ishlab chiqarish imkonini beradi (yer resursidan ikki karra samarali foydalanish) (2-jadval).

2-jadval. Tomchilatib sug'orish maydonlari³

Yil	Respublika miqyosida (ming gektar)	Surxondaryo miqyosida (ming gektar)
2021	165	15,5
2022	280	22
2023	450	38
2024	620	54
2025	780	71

² Muallif ishlanmasi minenergy.uz ma'lumotlari asosida

³ Muallif ishlanmasi stat.uz ma'lumotlari asosida




2-rasm. Respublika va Surxondaryo miqyosida qishloq xo'jaligi suv iste'moli⁴

Tomchilatib sug'orish texnologiyasi suv sarfini kamaytirishga yordam bermiqda.

3. Ekologik barqarorlik va "Yashil makon", Cho'llanish xavfi yuqori bo'lgan janubiy hududlar uchun maxsus strategiya amalga oshirilmoqda:

- Har yili o'rtacha 15-20 mln tup daraxt ekilmoqda. Asosiy e'tibor qum ko'chishini to'xtatuvchi sazovul va cho'l o'simliklariga qaratilgan.
- 2030-yilga borib viloyatning yashillik darajasini hozirgi holatdan 2 barobarga oshirish va Termiz shahri atrofida sun'iy o'rmonlar barpo etish orqali chang bo'ronlari ta'sirini kamaytirish (3-rasm).



3-rasm. Respublika va Surxondaryo miqyosida Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar⁵

Ushbu rasmdan ma'lumki yashillikning oshishi havo ifloslanishini nisbatan kamaytirmoqda.

Tahlil qilingan ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligida suv iste'molining kamayishi va tomchilatib sug'orish maydonlarining kengayishi suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar miqdorining qisqarishi ekologik muhofaza choralarning kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining ortib borishi esa iqtisodiy rivojlanish bilan birga energiya tizimining ham kengayib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu jarayonlar iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalarning hozirgi holati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra,

⁴ Muallif ishlanmasi water.uz ma'lumotlari asosida

⁵ Muallif ishlanmasi www.meteo.uz ma'lumotlari asosida



viloyat quyosh va shamol energiyasi resurslari salohiyati yuqori bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim texnologik va infratuzilmaviy jihatlar ushbu salohiyatdan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab kelayotganligi aniqlandi.

Jumladan, quyosh panellarining yuqori harorat sharoitida samaradorligi pasayishi, elektron chiqindilarni boshqarish tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, yashil vodorod ishlab chiqarishda suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq masalalar hamda energiya tarmog'idagi yuklamaning o'zgaruvchanligi kabi omillar tizimli yondashuvni talab etadi.

Maqolada mahalliy va xalqaro ilg'or tajribalar asosida ushbu masalalarga nisbatan samarali yechimlar taklif etildi. Xususan, yuqori haroratga moslashgan zamonaviy fotovoltaiq panellarni joriy etish, elektron chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash infratuzilmasini shakllantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanishga asoslangan texnologiyalarni qo'llash, energiyani saqlash tizimlarini (BESS) pilot loyihalar asosida joriy etish hamda aqlli energiya boshqaruvi tizimlarini rivojlantirish orqali hududda yashil energetikani samarali rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi asoslab berildi.

Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi, balki atrof-muhit muhofazasi, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu bois, hududiy va milliy darajadagi siyosiy qarorlar, texnologik innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar:

1. Muammo: Quyosh panellarining yuqori harorat ta'sirida samaradorligining pasayishi. Surxondaryo viloyatida yoz oylarida panel yuzasining harorati $+70^{\circ}\text{C}$ gacha yetishi natijasida samaradorlik 20–25% gacha kamayishi kuzatiladi.

Taklif: Yuqori haroratga chidamli (monokristalli va polikristalli, "high temperature tolerant") fotovoltaiq panellarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, panellarni tabiiy shamollatish yoki modul osti ventilyatsiya tizimlari bilan jihozlash, shuningdek, ularni optimal $33\text{--}37^{\circ}$ burchakda o'rnatish orqali energiya samaradorligini oshirish mumkin.

2. Muammo: Elektron chiqindilarni (E-waste) boshqarish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Taklif: Hududda elektron chiqindilarni yig'ish, saqlash va qayta ishlashga tayyorlashga ixtisoslashgan markazlarni tashkil etish zarur. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilarning mahsulotning butun hayotiy sikli uchun mas'uliyatini oshiruvchi "kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi javobgarligi" (Extended Producer Responsibility) tamoyilini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3. Muammo: Energiya tizimidagi yuklama nomutanosibliigi va tarmoq barqarorligining o'zgaruvchanligi. Quyosh energiyasi ulushining ortishi natijasida kunduzgi va kechki davrlar o'rtasida energiya taqsimotida tafovut yuzaga keladi.

Taklif: Energiya saqlash tizimlarini (Battery Energy Storage Systems — BESS) bosqichma-bosqich joriy etish va ularni pilot loyihalar asosida sinovdan o'tkazish muhimdir. Shu bilan birga, aqlli energiya boshqaruvi tizimlarini joriy etish orqali real vaqt rejimida energiya oqimini muvofiqlashtirish, ortiqcha energiyani sanoat va qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga yo'naltirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot: darslik. — Toshkent: "Universitet", 2020. — 262 b.
3. Edward Barbier. Green Economy. — London: Earthscan, 2011.
4. E. Buyukbicakci (2025). Geographic and thermal impact on the performance of hybrid PV–TE energy systems. Scientific Reports, 15, Article 40169.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. Rasmiy statistik ma'lumotlar. — <https://stat.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar portal. — <https://minenergy.uz/>
7. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar. — <https://water.uz/>
8. O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi. Rasmiy meteorologik ma'lumotlar. — <https://www.meteo.uz/>
9. United Nations Environment Programme. Green Economy. — <https://www.unep.org/explore-topics/green-economy/about-green-economy>
10. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. — Washington, DC, 2012.
11. International Renewable Energy Agency. Renewable Energy Statistics 2023. — Abu Dhabi, 2023.
12. International Energy Agency. World Energy Outlook 2023. — Paris, 2023.
13. OECD. Green Growth Indicators. — Paris, 2022.
14. European Commission. The European Green Deal. — Brussels, 2019.
15. Nicholas Stern. The Economics of Climate Change: The Stern Review. — Cambridge University Press, 2007.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>